

Andijon viloyatida umumiy o‘rta ta’lim tizimi (2019/2020 o‘quv yili boshiga)




Ilm va ma’rifat nafaqat yoshlarning balki butun bir jamiyat a’zolarining ma’rifat va ma’naviyatini shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ilm-ma’rifat rivojlan joyda doimo yuksalish bo’ladi.

Umumta’lim muassasasining asosiy maqsadi - o‘quvchilarni har tomonlama rivojlangan, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek, jamiyatda o‘zlarining mustaqil o‘rnini topish, ongli ravishda ta’lim va kasblar bo‘yicha dasturlarni tanlash, ularni o‘zlashtirish uchun asos yaratish, jamiyat, oila va davlat oldida o‘z mas’uliyatlarini his qila oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Sharq donishmandlari aytganlaridek: ***“Eng katta boylik - bu aql - zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir”***



Andijon viloyatida yangi 2019-2020 o'quv yilida jami 777 ta umumta'lim maktablari faoliyat ko'satmoqda. Ularda jami 558865 nafar o'quvchilar ta'lim olmoqdalar. O'tgan yilning mos davriga nisbatan umumta'lim maktablarining soni 32 ta (104,3%) ga ortgan. Ushbu umumta'lim muassasalarining 402 tasi (51,7%) qishloq joylarda, qolgan 376 tasi (48,3%) shaharlarda joylashgan.

Andijon viloyati bo'yicha umumta'lim muassasalari soni, (birlik)




Ma'lumot uchun




Umumta'lim muassasi – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'lim andozlari doirasida bepul umumiy ta'lim olishi kafolatlangan huquqiy va imkoniyatini beradi.

Umumta'lim maktablarining joylashuvi



Andijon viloyati umumta'lim muassasalari va o'quvchilari soni dinamikasi

	2014-2015 o'quv yili	2015-2016 o'quv yili	2016-2017 o'quv yili	2017-2018 o'quv yili	2018-2019 o'quv yili	2019-2020 o'quv yili
Umumta'lim muassasalari soni (birlik)	744	743	742	743	746	777
O'quvchilar soni (ming kishi)	396,5	410,3	431,6	482,2	532,8	558,9



Viloyatimizdagi umumta'lim muassasalari 3 turga bo'lingan: **boshlang'ich, umumiy o'rta va boshqalar** (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ixtisoslashgan) Yangi o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining 763 tasini umumiy o'rta, 5 tasini boshlang'ich va 9 tasini boshqa turdagi ixtisoslashgan maktablar tashkil etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jami 556,2 ming, boshlang'ich maktablarda 0,6 ming va boshqa maktablarda 2,0 ming nafar o'quvchilar ta'lim olmoqdalar.

Ma'lumot uchun:




Umumta'lim muassasalari o'quvchilariga – umumta'lim muassasalarining boshlang'ich va umum o'rta ta'lim bosqichlarida o'qiyotgan shaxslar hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarning o'quvchilari kiradi.


Umumiy o'rta ta'lim tizimi, boshlang'ich (I - IV sinflar), tayanch o'rta (V-IX sinflar) hamda umumiy o'rta ta'lim (X-XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida faoliyat yuritadi. Jami viloyatdagi umumta'lim maktablaridagi o'quvchilarning 42,0 % ni I - IV sinf o'quvchilari, 43,6 % ni V-IX sinf o'quvchilari, 14,1 % ni X-XI sinf o'quvchilari va qolgan 0,3 % ni boshqa turdagi o'quvchilar tashkil etadi.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini sinflar bo'yicha taqsimlanishi


(birlik)




2019-2020 o'quv yili boshida viloyatdagi jami 558865 nafar o'quvcilarning 270699 nafari (48,4%) ni o'quvchi qizlar tashkil etadi. 1-4 sinf o'quvchilarining 113354 nafari (48,3%) ni, 5-9 sinf o'quvcilarining 118002 nafari (48,5%) ni, 10-11 sinf o'quvchilarining 38503 nafari (48,9%) ni va boshqa maktab o'quvcilarining 840 nafari (41,1%)ni o'quvchi qizlar tashkil qiladi.




Umumta'lim muassasalarida sinflar bo'yicha o'quvchilar soni, kishi
(2019/2020 o'quv yili boshiga)

 Jami o'quvcilar	1-4 sinf o'quvcilari	5-9 sinf o'quvcilari	10-11 sinf o'quvcilari	boshalar	
Viloyat bo'yicha	558865	234701	243446	78674	2044
<i>Andijon shahar</i>	<i>85377</i>	<i>35608</i>	<i>37121</i>	<i>11924</i>	<i>724</i>
<i>Xonobod shahar</i>	<i>6588</i>	<i>2954</i>	<i>2873</i>	<i>761</i>	<i>-</i>
<i>tumanlar:</i>					
<i>Oltinko'l</i>	<i>35355</i>	<i>14698</i>	<i>15556</i>	<i>5098</i>	<i>3</i>
<i>Andijon</i>	<i>42438</i>	<i>17723</i>	<i>18904</i>	<i>5803</i>	<i>8</i>
<i>Baliqchi</i>	<i>35123</i>	<i>14265</i>	<i>15674</i>	<i>5184</i>	<i>-</i>
<i>Bo'ston</i>	<i>13120</i>	<i>5359</i>	<i>5888</i>	<i>1873</i>	<i>-</i>
<i>Buloqboshi</i>	<i>24583</i>	<i>10097</i>	<i>10975</i>	<i>3511</i>	<i>-</i>
<i>Jalaquduq</i>	<i>32111</i>	<i>13685</i>	<i>13883</i>	<i>4538</i>	
<i>Izboskan</i>	<i>40959</i>	<i>17499</i>	<i>17646</i>	<i>5814</i>	<i>-</i>
<i>Ulug'nor</i>	<i>10475</i>	<i>4418</i>	<i>4515</i>	<i>1542</i>	
<i>Qo'rg'ontepa</i>	<i>35732</i>	<i>15228</i>	<i>15486</i>	<i>5001</i>	<i>17</i>
<i>Asaka</i>	<i>56213</i>	<i>24635</i>	<i>23683</i>	<i>7480</i>	<i>415</i>
<i>Marxamat</i>	<i>29908</i>	<i>12521</i>	<i>12975</i>	<i>4412</i>	<i>-</i>
<i>Shaxrixon</i>	<i>55647</i>	<i>22783</i>	<i>24350</i>	<i>8267</i>	<i>247</i>
<i>Paxtaobod</i>	<i>34657</i>	<i>14859</i>	<i>15067</i>	<i>4731</i>	<i>-</i>
<i>Xo'jaobod</i>	<i>20579</i>	<i>8369</i>	<i>8850</i>	<i>2735</i>	<i>625</i>




Viloyatdagi umumta'lim maktablarida mashg'ulotlar asosan 2 smenada olib boriladi. Yangi o'quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashgan maktablarsiz) 768 umumta'lim maktablaridan 221 tasi 1-smenada (28,8%) va qolgan 546 tasi (71,2%) 2-smenada ta'lim olmoqdalar.

Yoshlarni chuqur bilim, yuksak madaniyat va ma'naviyat egasi etib tarbiyalash hozirgi kundagi pedagog xodimlar oldida turgan eng dolzarb vazifadir. 2019-2020 o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida 39936 nafar (o'rindoshlarsiz) pedagog xodimlar bolalarga ta'lim bermoqdalar. Ularning 34574 nafari, (86,6 %) oily ma'lumotli va qolgan 5362 nafari (13,4%) o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislardir. Viloyat bo'yicha bitta o'qituvchiga o'rtacha 14 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.



Umumta'lim muassasalarining pedagog xodimlari soni

(o'rindoshlarsiz, kishi hisobida)



Andijon viloyati umumta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar soni

(o'rindoshlarni qo'shgan holda, ming kishi)





Yangi 2019-2020 o'quv yilida boshiga viloyatdagi umumta'lim maktablarining 1-sinfiga jami 56009 nafar o'quvchilar qabul qilindi. (Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar o'quvchilarisiz).

2019-2020 o'quv yili bosida viloyatdagi umumta'lim maktablarini jami 38139 nafar 9-sinf o'quvcilari bitirdilar, ularning 18434 nafarini qizlar tashkil etdi. 11-sinfni 29889 nafar o'quvchilar bitirdilar, ularning 15040 nafari qizlardan iborat



O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar bilan har tomonlama manfaatli o'zaro hamkorligining yangi bosqichga ko'tarilishi jarayonida istiqbolli yoshlarni tayyorlash, yosh avlodga xorijiy tillarni, jumladan ingliz, nemis va fransuz tillarini chuqur o'rganishlari uchun shart- sharoitlar yaratish va ularning intellektual salohiyatini oshirish, xalqaro maydonda yurtimizning nufuzini yanada yuksaltirishga qodir bo'lgan avlodni tarbiyalash asosiy maqsadimizdir..



2019-2020 o'quv yili boshida viloyatning 768 ta umumta'lim muassasalarida (maxsus maktablardan tashqari) o'quvchilar xorijiy tillardan saboq olmodalar. Jumladan: 744 maktab o'quvchilari ingliz, 115 maktab o'quvchilari nemis, 115 maktab o'quvchilari fransuz va 3 maktab o'quvchilari boshqa xorijiy tillarda.

Viloyatdagi umumta'lim maktablarida (maxsus ixtisoslashgan maktablardan tashqari) faqat bitta tilda dars olib boruvchi maktablar quyidagicha: 673 ta maktab - o'zbek tilida, 6 ta maktab - rus tilida, 2 ta maktab – qirg'iz tilida. Bundan tashqari 86 ta umumta'lim maktablarida aralash tillarda mashg'ulot olib boriladi.



2019-2020 o'quv yili boshiga viloyatda faoliyat korsatayotgan 768 umumta'lim maktablarining (maxsus ixtisoslashgan maktablardan tashqari) umumiy yer maydoni 2026682 ming metr kvadratni tashkil etadi. 705 ta umumta'lim maktablarida oshxona yoki

bufet, 751 tasida kutubxona va 8870330 ming nusxadagi darsliklar, 659 tasida sport zallari, 16 tasida basseyn mavjud.

O'quvchilarni informatika texnologilari bo'yicha bilim olishlari uchun 756 ta umumta'lim maktablarida 969 ta kompyuter sinflari mavjud. Ular 13987 dona kompyuterlar bilan jihozlangan. 597 umumta'lim maktablari "ZiyoNet" tarmog'iga ulangan. Bundan tashqari 622 umumta'lim maktablarida videoproektor, 351 tasida elektron doska, 292 tasida interaktiv doskalar mavjud.



Andijon viloyati statistika boshqarmasi

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (74 224-82-69)